

**OQQON KASALLIGI**

**Payg'amova Farangiz Xurshid qizi**

*Toshkent tibbiyot akademiyasi 1- son davolash talabasi*

*Tel: +998935771507 Email: fpaygamova15@gmail.com*

**Qurbonmurodov Axmadshoh Sobirovich**

*Toshkent Tibbiyot Akademiyasi 2 davolash ishi talabasi*

*Tel: +998946524841 Email: qurbonmurodovaxmadshoh@gmail.com*

**Xolto'rayeva Shohsanam Jahongitovna**

*Toshkent tibbiyot akademiyasi 1- son davolash talabasi*

*Tel: +998 93 349 56 78 Email: Shohsanam@gmail.com*

**Tojiboyeva Dilorom Iskandar qizi**

*Toshkent Tibbiyot Akademiyasi 2-son davolash ishi talabasi*

*Tel: +998940511808 Email : tojiboevadilorom08@gmail.com*

**Munisa Norboyeva Orif qizi**

*Toshkent tibbiyot akademiyasi 1 davolash ishi talabasi*

*Tel:+998777272512 Email: moonica.norboyeva@mail.ru*

Oqqon kasalligi – turli shaklda uchraydigan qon va suyak iligi saratonining nomidir. Minglab insonlar ushbu kasallikdan aziyat chekadi, ayniqsa, ular orasida 15 yoshgacha bo'lgan bolalar ko'pchilikni tashkil qiladi. Oqqon o'limga olib boradigan kasallikdir, ammo uni o'z vaqtida davolash vaziyatni biroz yengillashtirishi mumkin. Shuningdek, har o'n yilda olimlar tobora ko'proq samarali dori topishga muvaffaq bo'lmoqda. O'tgan asrning 50-yillarida tashxis qo'yilgan bemorlarning 14 foizi besh yoki undan ko'proq vaqt yashagan, hozirda esa ularning ulushi 60 foizni tashkil etadi. Bundan tashqari, hozirda bir vaqtning o'zida bir nechta dorilar sinovdan o'tkazilmoqda, ular samarali deb topilsa, ushbu dahshatli kasallikni davolashda haqiqiy yangilik bo'lishi mumkin.



Domiy charchoq hissi, ayniqsa, uning kuchayib borayotgani kasallikning ilk alomati bo'lishi mumkin. Bu alomat ko'pinchi saraton kasalligining belgisi bo'lishi sanaladi. Charchoq darajasi yengil boshlanib, keyinchalik chidab bo'lmaydigan

darajaga o'tadi. Ammo har qanday holatda ham kunlik yumushlardan odatdagidan ko'proq charchash holati kuzatilsa, shifokor bilan maslahatlashish zarur.

Vahti-vaqti bilan og'ir nafas olish, nafas olayotganda siqilish – bularning barchasi tezroq shifokorga murojaat qilish kerak deganidir. Oqqonda kechadigan kamqonlik holati nafas qisilishiga olib kelishi mumkin, chunki o'pka yetarlicha kislorod olmaydi va shuning natijasida yaxshi ishlamaydi.

Oqqon kasalligida qonda trombositlar soni keskin kamayadi. Shuningdek, qon ivishi bilan bog'liq muammolar tanada ko'karishlar paydo bo'lishiga olib keladi. Inson hech qanday jarohat olmagan bo'lsa-da, qo'l va oyoq qismlarida ko'karishlar paydo bo'ladi. Bu esa xavfli alomat hisoblanadi.

Burun va milkning qonashi qonda trombositlar yetishmovchiligi natijasida qon quyuqlashishi muammolari namoyon bo'lishi mumkin. Bu esa o'z navbatida oqqon kasalligining jiddiy alomatini ko'rsatgan bo'ladi.

Og'riqsiz va qo'l-oyoqda joylashgan kichik qizil nuqta trombositlar sonining pastligini ko'rsatadi. Ko'pincha ular to'piq sohasida paydo bo'ladi.

Oqqon kasalligining eng aniq alomati tish milklarining shishib ketishidir. Bunday holatda bemor og'zida noqulayliklar paydo bo'ladi.

Ushbu alomat oqqon kasalligiga chalingan bemorlarning to'rtidan birida kuzatiladi. Ammo bu e'tiborsiz qoldiriladigan alomat emas. Bundan tashqari ko'tarilgan harorat infeksiyani ko'rsatishi va immunitetni zaiflashtiradi. Bu ham kasallikning eng aniq belgilaridan biridir.

Bu ham oqqon kasalligining ilk alomatlaridan bo'lib, albatta, bunga e'tiborli bo'lish kerak. Qorinning pastki qismi, qo'litiq osti va bo'yin sohasidagi limfa bezlarining og'riqsiz shishishi yuqumli kasallik uchun qulaydir. Ammo ular uzoq vaqtgacha saqlanib tursa, shifokorga murojaat qilish zarur.

Oqqon bilan kasallangan har yigirma bemorning bittasida teri toshmalari kuzatiladi. Bu allergiyaga ham o'xshashi mumkin. Shuningdek, toshma turli shakl va o'lchamda bo'lishi mumkin. Ammo ularning umumiy jihati bir xil – tobora ko'payib, tananing katta qismini egallaydi.

Leykoz (leykemiya, aleykemiya, oq qon kasalligi) — bu qon hosil qilish tizimining klonal yomon sifatli (neoplastik) kasalligi. Leykozlar o'z etiologiyasiga ko'ra turlicha bo'lgan kasalliklarning keng guruhini o'z ichiga oladi. Leykozlarda yomon sifatli klon suyak iligining yetilmagan gemopoetik hujayralaridan ham, yetilayotgan va yetuk qon hujayralaridan ham paydo bo'lishi mumkin.

Mayo va ACS ma'lumotlariga ko'ra, oq qon kasalligi rivojlanishining aniq sabablari fanga noma'lumligicha qolmoqda.

Leykoz rivojlanishi xavfining oshishi bilan bog'liq bo'lgan omillar orasida (Mayo ma'lumotlariga ko'ra):

- Kimyoterapiya va radioterapiyaning ayrim turlari;
- Ayrim genetik kasalliklar;
- Bir qator kimyoviy moddalarning ta'sir qilishi;



- Chekish (ayniqsa o'tkir mieloid leykemiya xavfi yuqori);
- Irsiyat (oilada leykemiya holatlari mavjudligi).

Leykozda saraton to'qimasi dastlab suyak iligi lokalizatsiyalangan joyida o'sadi va asta-sekin normal qon hosil qilish hujayralari o'rnini egallab oladi. Ushbu jarayon natijasida tabiiy ravishda bemorda sitopeniyaning turli xil variantlari rivojlanadi, xususan anemiya (<https://med360.uz/kasalliklar/kamqonlik/>), (<https://med360.uz/kasalliklar/kamqonlik/>) trombositopeniya, limfositopeniya, granulotsitopeniya. Buning natijasida esa o'z navbatida immunitetning zaiflashuvi va uning fonida infeksiyon kasalliklarga chalinishga moyillik hosil bo'lishi, qon ketishlar kuzatila boshlaydi.

Leykemiyaning belgilari kasallikning turiga bog'liq. Asta-sekin o'sayotgan yoki surunkali leykemiya dastlabki muddatlarda biron-bir belgi namoyon qilmaydi, agressiv yoki tez o'sayotgan turi og'ir alomatlariga olib kelishi mumkin. Uning belgilari qon hujayralarining (shaklli elementlarining) funktsiyasi yo'qotilishi yoki organizmdagi g'ayritabiiy hujayralarni to'planishi sababli yuzaga keladi.

Oq qon kasalligining alomatlari odatda quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Isitma;
- Kechki terlash;
- Limfa tugunlarining kattalashishi, odatda og'riqsiz;
- Charchoq hissi;
- Yengil qon ketish;
- Teri ustida moviy yoki binafsharang dog'lar;
- Takroriy burun qonashi;
- Tez-tez infeksiyalarga duchor bo'lish;
- Suyak yoki bo'g'imlardagi og'riq;
- Tana vaznining kamayishi yoki ishtahaning yo'qolishi;
- Qorin og'rig'i yoki shishlarga olib kelishi mumkin bo'lgan taloq yoki jigarning kattalashishi;
- Terida qizil dog'lar.

Agar leykoz hujayralari miyaga kirsa, bosh og'riqlari, tutqanoq, ong chalkashligi, mushaklarni nazorat qilishning pasayishi va qayt qilish kabi alomatlar paydo bo'lishi mumkin.

Kechishiga ko'ra

- O'tkir — yetilmagan hujayralardan (blastlardan);
- Surunkali — yetilayotgan va yetuk hujayralar.

Shuni ta'kidlash kerakki, o'tkir leykoz hech qachon surunkali shaklga o'tmaydi, surunkali holatlarda esa xuruj olish kuzatilmaydi. Shu sababli «o'tkir» va «surunkali» atamalar faqat qulaylik tufayli qo'llaniladi, gematologiyada ushbu atamalarning ma'nosi boshqa tibbiy distsiplinalardagi ma'nodan farq qiladi. Surunkali leykozlar uchun «xurujlar» — qonning tasviri o'tkir shakldagi holatni eslatadigan blastli krizlar xarakterlidir.

Davolash

Surunkali leykemiyada shifokor qo'llab-quvvatlovchi taktikani tanlaydi, uning maqsadi asoratlar rivojlanishini kechiktirish yoki oldini olishdir. O'tkir leykemiyada shoshilinch terapiya talab qilinadi, bu yuqori dozalarda kimyoterapevtik vositalarni qabul qilishni o'z ichiga oladi. Kimyoterapiya organizmga oq qon hujayralaridan tozalanishga imkon beradi. Shundan so'ng, agar talab etilsa, sog'lom donorlik suyak iligi hujayralarini transplantatsiyasi buyu